

## NAMUDLAR BASTAKORLIK ASARLARIDA

**Jaxongirova Mubiyina***Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti**musiqa san'ati ta'lim yo'nalishi 2-kurs magistri***Ilmiy rahbar: Berdixanova Shaxida Nurilbayevna***Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti**“O'zbek maqom tarixi va nazariyasi” kafedrası san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada XX–XXI asr o'zbek musiqashunoslik ilmda bastakorlik ijodining tutgan o'rnini va ahamiyatini o'rganish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda bastakorlik ijodida namudlarning nazariy hamda amaliy jihatlarini, ularning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilinadi.

Shuningdek, namudlarning maqom san'atidagi vazifasi, maqom ashula rivojida o'rnini va badiiy ifoda vositasi sifatidagi ahamiyati ko'rib chiqilgan. Maqolada bastakorlik amaliyotida namudlardan foydalanish usullari, ularning ashula shakli tuzilishdagi vazifalari hamda o'ziga xos xususiyatlari ilmiy farazlar va mavjud manbalar asosida yoritib berilgan. Tadqiqot natijalari o'zbek bastakorlik maktabining rivojlanish jarayonlarini chuqurroq anglash, maqom an'analari va zamonaviy bastakorlik ijodi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aniqlashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'z:** maqom, bastakorlik, kuy, ashula, qo'shiq, musiqa, xalq, asar, Ushshoq, namud.

**Abstract:** This article examines the significance and role of compositional creativity in Uzbek musicology of the twentieth and twenty-first centuries. The study analyzes the theoretical and practical aspects of namuds in the works of composers, as well as the stages of their formation and development. Particular attention is paid to the functions of namuds within the maqom tradition, their contribution to the creation of musical imagery, and their importance as expressive artistic devices. The article also discusses the methods of applying namuds in compositional practice, their functions within musical structure, and their distinctive characteristics. These issues are considered on the basis of scientific hypotheses and relevant scholarly sources. The findings contribute to a deeper understanding of the development of the Uzbek school of composition and reveal the close relationship between maqom traditions and contemporary compositional creativity.

**Keywords:** maqom, composition, melody, song, musical piece, music, folk, work, Ushshoq, namud.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы изучения значения

и роли композиторского творчества в узбекском музыкознании XX–XXI веков. В исследовании анализируются теоретические и практические аспекты намудов в композиторском творчестве, а также этапы их формирования и развития. Особое внимание уделяется функциям намудов в искусстве макома, их роли в создании музыкальных образов и значению как средства художественной выразительности. В статье освещаются способы применения намудов в композиторской практике, их функции в композиционной структуре произведений и характерные особенности. Рассматриваемые вопросы раскрываются на основе научных гипотез и существующих источников. Полученные результаты способствуют более глубокому пониманию процессов развития узбекской композиторской школы и выявлению взаимосвязи между традициями макома и современным композиторским творчеством.

**Ключевые слова:** маком, композиторское творчество, мелодия, ашула, песня, музыка, народ, произведение, Ушшок, намуд.

Bastakorlik ijodiyoti o'zida o'zbek mumtoz musiqasining deyarli barcha janrlarini qamrab olgan. Bastakorlar o'z qobiliyati saloyihati va tajribasiga tayangan xolda asarlar yaratishadi hamda yetakchi janr maqomlarga ko'p murojaat etish an'anasi hozirga qadar saqlanib qolgan.

Bastakorlar ijodida namudlarning qo'llanish amaliyoti o'ziga xos yo'nalishda va chuqur ijodiy yondashuv asosida shakllangan. Xususan, mavjud maqom ashula yo'llariga namudlarni mahorat bilan bog'lash orqali kuy tuzilmasini boyitish, shakliy yaxlitlikni ta'minlash hamda ohang rivojini mantiqan izchil davom ettirishga erishilgan.

Shuningdek, xalq ashula va kuylariga ham namudlarni bog'lash amaliyoti qo'llanilgan. Bunda mavjud muallifi noma'lum xalq musiqa asari namunasi bastakorlik tajribasi orqali qayta ishlanib, namud va avj kiritish sababidan murakkabroq shaklga keltiriladi, rivojlanish xususiyati bilan boyitiladi va natijada mukammal ashula ko'rinishiga ega bo'ladi. Bu jarayonda namud nafaqat bezak unsuri, balki asarning shakliy tayanchi sifatida namoyon bo'ladi. Natijada kuy mazmunan chuqurlashadi, shaklan takomillashadi va ijro imkoniyatlari kengayadi. Namudlar orqali asarning badiiy qamrovi kengayadi, an'anaviy kuy yo'llari esa yangi talqin va mazmun kasb etadi.

Namudlar bastakorlik ijodida nafaqat an'anaviy maqom namunalarini boyitish vositasi sifatida, balki mualliflik asarlarida ham muhim unsur sifatida qo'llanilgan. Bu jarayonda namudlar asarning ta'sirchanligini oshirish, kuy rivojini chuqurlashtirish va ijodkorning individual uslubini namoyon etishga xizmat qilgan.

Bastakorlar namudlardan foydalanishda ularni mavjud ashula yo'llariga uyg'unlashtirish, o'rinli ravishda shakliy bo'shliqlarni to'ldirish hamda mualliflik

ijodida yangicha talqin asosida qo‘llash orqali maqom an‘analarini davom ettirish va rivojlantirishga erishganlar.

Mumtoz musiqa asosida yozilgan asarlarga xar bir bastakor o‘ziga hos uslubda yondoshgan. Jumladan Xoji Abdulaziz Rasulov, Mula To‘ychi Toshmuhammedov, Yunus Rajabiy, To‘xtasin Jalilov, Imomjon Ikromov, G‘anijon Toshmatov, Orifxon Xotamov, Faxriddin Sodiqov, Fatoixon Mamadaliyev, Doni Zokirov, Komiljon Jabborov, Saidjon Kalonov, keyingi avlod bastakorlaridan O‘lmas Rasulov, Mahmudjon Tojiboyev, Abduhoshim Ismoilov va Erkin Ro‘zimatov shular jumlasidandir.

Yuqorida keltirilgan bastakorlar ijodida namudlarning qo‘llanish xususiyati va uslublariga ko‘ra quyidagicha jadval shakllantirildi.

| № | Namudlar qo‘llanish uslubi                                                                                                                            |
|---|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | Bastakorlar tomonidan maqom namudlari hamda ranglarni mavjud maqom ashula yo‘llarining avj qismlariga qo‘shish orqali asar shaklini mukammalshtirish. |
| 2 | Bastakorlar nazira ijodida, turkumlashtirilgan asarlarida namudlarni qo‘llash.                                                                        |
| 3 | Mualliflik asarlarida namudlardan foydalanish.                                                                                                        |

Yuqorida keltirilgan **birinchi uslubga** kiruvchi, mavjud maqom va ashula yo‘llariga namud bog‘lash amaliyoti xususida Yunus Rajabiy “Muzika merosimizga bir nazar” kitobida qimmatli ma‘lumotlar keltirib o‘tgan xususan: “Chapandozi gulyor” ilgarigi variantlarida bayt holida ijro etib kelingan, hamda ashulaning oxirgi misrasining avji usulsiz bo‘lib, katta ashulalarga xos avj qo‘llanilardi, usulga solib “Namudi Ushshoq”ni bastaladim<sup>1</sup>, “Dilxiroj” kuyiga katta avjdan oldin keladigan avjiga “Namudi Segoh”<sup>2</sup>ni qo‘shib ishladim, “Navro‘zi Sabo” ga esa “Namudi Oraz” ni kiritgan hamda “Kurd” va “Cho‘li Kurd” kuylarining avjidan keying turk avjini qo‘shdim”<sup>3</sup> deya ma‘lumot berib o‘tgan. S

Jadvaldagi **ikkinchi uslubga** alohida to‘xtalib o‘tamiz. Mumtoz musiqa namunalarini turkumlashtirish bastakorlar ijodining o‘ziga hos yo‘nalishlaridan biridir. Xususan Ushshoq nomi bilan aytiluvchi juda ko‘p mumtoz ashula namunalari xalq orasida keng ommalashgan. Ushshoq asosida ko‘plab bastakorlar asarlar yozishgan.

Hoji Abdulaziz Rasulov ijodiga mansub “Samarqand Ushshog‘ida” namudlarning o‘ziga hos qo‘llanilganini ko‘rish mumkun. Bastakor ushbu asarida namudlardan o‘ziga hos foydalangan bo‘lib, Uzzol va Chorgoh namudlariga monand kuy ohangini “Samarqand Ushshog‘i” asarning avj qismida emas balki boshlang‘ich kuy jumllariga kiritilgan. Bu haqida Chinora Ergasheva quyidagicha bayon qiladi. “Bizningcha, bu holni ikki omil bilan — birinchidan, Farg‘ona–Toshkent uslubining ta’siri, ikkinchidan

<sup>1</sup>Rajabiy Yu. Muzika merosimizga bir nazar. – Toshkent : G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va San‘at, 1978 -134b

<sup>2</sup> Rajabiy Yu. Muzika merosimizga bir nazar. – Toshkent : G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va San‘at, 1978 - 54b

<sup>3</sup> Rajabiy Yu. Muzika merosimizga bir nazar. – Toshkent : G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va San‘at, 1978 - 53b

esa Hoji Abdulaziz Rasulovning maqom avjlariga ijodkorona yondoshuvi bilan asoslash mumkin. Tadqiqotning II bobida “Saraxbori Rost” avjlari (namudlari) asosida keyingi asosiy qism sho‘basi — “Talqini Ushshoq” nazirasining yuzaga kelishi haqida aytilgan edi. Nazarimizda, “Samarqand Ushshog‘i”ning boshlanishi ham buxorolik ijodkorlar an‘anasining bir ko‘rinishidir.”<sup>4</sup> Mazkur fikrga izoh sifatida ta’kidlash joizki bastakorlar ijodida namudlar o‘ziga hos ko‘rinishni kasb etgan bo‘lib, nafaqat avj qismida balki daromad qismida ham o‘ziga hos ko‘rinishda namoyon bo‘lishi extimoldan xoli emas. Hoji Abdulaziz Abdurasulov “Samarqand Ushshog‘i” asarida nafaqat kirish qismida balki avj qismida ham namudlardan foydalangan. Xususan avj qismida Uzzol namudiga hos “ohang sakramasi tarzida emas, balki pog‘ona-ma-pog‘ona pastlashish vositasida amalga oshgan. Uzzol kuy tuzilmasining shu kabi ko‘rinishlari asar avjlarida kelish hollari ham uchraydi.”<sup>5</sup>

Bastakor Fattohxon Mamadaliyev “Ushshoqlar” ustida ko‘p ijod qilib turkumlashtirish ishlarini olib brogan. Bastakor tomonidan qayta turkumlashtirilgan asarlardan biri “Umurzoq Polvon” asarda Ushshoq namudidan foydalangan.<sup>6</sup> Mula To‘ychi Toshmuhammedovning “Toshkent Ushshog‘i” da “Uzzol namudi” dan foydalanilgan.<sup>7</sup>

Yunus Rajabiy “Muzika merosimizga bir nazar” asarida Ushshoqlarga kiritilgan avj va namudlar haqida juda ko‘p to‘xtalib o‘tkan. Masalan, “Ushshoqi Xo‘qand” da ilgari “Avji Zebo pari” kichik shaklda aytilgan, Yunus Rajabiy esa avjni to‘la qilib ishlab, “Namudi Ushshoq” va “Namudi Uzzol” larni kiritgani haqida bayon etadi.<sup>8</sup> Shuningdek “Qo‘qon Ushshog‘i” asariga maqomchilar ansambliga o‘rgatish jarayonida “Zebo pari”, “Namudi Ushshoq”lar qo‘shilgan va ushbu asar qayta ishlangan va mukammallashtirilgan.<sup>9</sup>

Shu o‘rinda aytish joizki bastakorlar bilan bir qatorda maqom ijrochi hofiz va xonandalar tajriba ham maxoratlaridan kelib chiqib, amaliyotda mumtoz maqom namunlariga bittadan to‘rttagacha namudlar bog‘lab ashula avjini kengaytirgan xolda ijro qilishadi.

**Uchinchi uslubda** bastakorlar o‘z mualliflik asarlarida ham namud va avjlar kiritishgan. Bunda yaratilgan ashula ma‘lum maqom yo‘li asosida yozilgan bo‘lib maqom sho‘balari asosida yozilgan bastakor asarlariga Is‘hoq Rajabov “T.Jalilovning “Ishq seli”, “So‘rmadi”, Yunus Rajabiyning “Yor keldi”, “Ra‘nolanmasun”, D.Zokirovning “Ey Sabo”, “Ko‘rmadim”, S.Kalonivning “Ey Nasimiy”, “Topmadim”<sup>10</sup> asarlarini kiritib o‘tgan.

<sup>4</sup> Ergasheva Ch. O‘zbek mumtoz musiqasida nazira an‘analari. – Toshkent : Musiqa, 2022- 118b

<sup>5</sup> Ergasheva Ch. O‘zbek mumtoz musiqasida nazira an‘analari. – Toshkent : Musiqa, 2022 – 120b

<sup>6</sup> Ergasheva Ch. O‘zbek mumtoz musiqasida nazira an‘analari – Toshkent : Musiqa, 2022 – 136-40b

<sup>7</sup> Ergasheva Ch. O‘zbek mumtoz musiqasida nazira an‘analari – Toshkent : Musiqa, 2022 – 132b

<sup>8</sup> Rajabiy Yu. Muzika merosimizga bir nazar. – Toshkent : G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va San‘at, 1978 - 41b

<sup>9</sup> Rajabiy Yu. Muzika merosimizga bir nazar. – Toshkent : G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va San‘at, 1978 - 41b

<sup>10</sup> Rajabov I. Maqomlar. - Toshkent : San‘at, 2006-313b

Saidjon Kalonovning “Topmadim” ashulasini tahlil qilib namudlar kiritilganini guvohi bo‘ldik. Quyida asar tahlili keltirib o‘tamiz. Ushbu asar “Mog‘ulchayi Dugoh”<sup>11</sup> asosida yozilgani xususida manbalarda ma’lumotlar keltirilgan. Xususan Yunus Rajabiy ushbu asarni ““Topmadim” ashulasini ham 1944 yil S.Kalonov 3/8+3/4 o‘lchovlik qilib, “Ey nasimi” singari maqomlardagi “Talqinchalar” uslubida yaratgan edi. Bu kuy “Mog‘ulchai Dugoh” talqinchasini eslatadi”<sup>12</sup>. Ashula cholg‘u muqaddimasi bilan boshlanadi. Daromad Navoiyning “Mehr ko‘p ko‘rgizdim, ammo, mehribone topmadim” so‘zlaridan boshlanadi. Ashula Dugoh maqom yo‘llariga monand re- miksaliy ladida yozilgan. Asarning daromad qismi katta bo‘lib ikki bayt ijro etiladi. Ashulada miyonxat qismiga hos jixatlar mavjud bo‘lmasada uchinchi bayt “Ishq aro yuz ming malomat o‘qig‘a bo‘ldim nishon” so‘zlaridan Dunasr ga monand qism kirib keladi. Ushbu bo‘lakda asarning tayanch tovushi “d” bir oktava yuqorida yangray boshlaydi va kuy xarakati asta sekin yuqoriga qarab intiladi.

Dunasr bo‘lagidan so‘ng ashulaning avj qismi boshlanadi. Ashulaning avjida “Muhayyari Chorgoh” namudi kiritilgan bo‘lib, ushbu namud 6 taktli cholg‘u qismi orqali ulanib “Ko‘p o‘qidum Vomiqu, Farhodu, Majnun qissasin” baytida ifoda etilgan. Ashulaning avj qismi ikki baytdan tashkil topgan bo‘lib, bastakor “Muhayyari Chorgoh” namudini ixchamlashtirgan xolda o‘z asarida qo‘llagan.

1- Misol “Topmadim”(bastakorlar ijodiyoti: notalar to‘plami 131b)



Ashula “Bir zamon ishqida mehnatdin amone topmadim” misralari bilan tushirim ko‘rinishida yakunlanadi.

Bastakorlar ijodida maqom yo‘llari mualliflik asarlarida qo‘llanilganida o‘ziga hos ko‘rinishda ifoda etiladi bu haqida Is’hqo Rajabov quyidagicha bayon qilgan “Maqom yo‘llari asosida ishlangan asar ko‘pincha ularning ixchamlashtirilgan shakli bo‘ladi. Bunda kuy va ashulalarga yangi musiqa lavhalari, yangicha usul va qochirimlar kiritish bilan ularning yoqimlilik va ta’sirchanligi yanada orttiriladi”.<sup>13</sup> Darxaqiqat maqom asosida yozilgan bastakorlarning mualliflik asarlarida namudlar ham ixchamlashtirilgan ya’ni bir misra qisqartirilgan ko‘rinishda ishlatilishini Saidjon Kalonovning “Topmadim” ashulasi misolida ko‘rib chiqdik.

Bastakorlarning mualiflik asarlarida nafaqat namudlar avjlardan ham foydalanilgan bo‘lib, jumladan Hoji Abdulaziz Rasulovning “Guluzorim” asarida Turk

<sup>11</sup> Rajabov I. Maqomlar. - Toshkent : San’at, 2006-314b

<sup>12</sup> Rajabiy Yu. Muzika merosimizga bir nazar. – Toshkent : G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va San’at, 1978 -55b

<sup>13</sup> Rajabov I. Maqomlar. - Toshkent : San’at, 2006-313b

Avjining o'ziga hos kiritilganini ko'rish mumkun. Ushbu asar xalq ohanglari va mumtoz musiqa jihatlari bilan umumlashgan bo'lib, bu haqida S.Begmatov quyidagicha izohlaydi. "Amaliyotda "Guluzorim" ashulasining ikki-uch varianti mavjuddir. Birinchi variant — katta avj bilan ijro etilgan. Ikkinchisi avj qismini sakramasizlar siz ijro etib kelingan. "Guluzorim" ashulasi mumtoz ashula yo'llariga xos bo'lib, xalqona ohang, badahaviylik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ashulaning ohangi juda sodda va kvarta oraliq'idagi kuy tuzilmadan tashkil topgan. Mumtozlik jihatlari maqom yo'larida yaratilganligi bilan xarakterlanadi. Xususan, bastakor ustalik bilan "avji turk"ni qo'llagan."<sup>14</sup> Ashulaga Alisher Navoiy g'azaliga Amiriy muhammasi tanlab olingan. Shakl jixatidan esa Shashmaqom mushkilot qismlariga o'xshash xona va bozgo'y ko'rinishida.

Birinchi xona quyi pardalarda boshlanib bozgoy va ikkinchi xona bo'laklarida yuqoriga qarab asta rivojlanadi. Asarning avj qismi 3 xonaga tog'ri kelib "Gohi Majnun elga goh men sog' ilan teng o'lnisham" so'zlaridan boshlab bir bayt to'liq kir Turk avji kiritilgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak namudlar maqom yo'llarida qo'llanilganida ma'lum, o'zining qonun va maqom avjlariga kiritilish xususiyatlariga bo'ysungan xolda bog'lanadi. Namudlar bastakorlik asarlarida esa bastakar tajribasi, o'ziga hos uslubi va ijodkorligi negizida o'ziga hos ko'rinishda ifoda etiladi. Bunga misollarni esa yuqorida Hoji Abdulaziz Rasulovning "Samarqand Ushshog'i", Saidjon Kalonovning "Topmadim" ashulasi misolida ko'rib chiqdik. Bastakorlar namudlardan foydalanish orqali asarni shaklini mukammallashtirish, asarga o'ziga hos jilov berish jixatlaridan foydalanishgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ahmedov M. Yunus Rajabiy. - Toshkent : G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1982.
2. Begmatov S. Bastakorlar ijodiyoti notalar to'plami (Xrestomatiya). - Toshkent; Nur-star shines, 2022
3. Begmatov. S. Bastakorlik ijodi. - Toshkent : Niso Poligraf, 2017.
4. Ergasheva. Ch. O'zbek an'anaviy musiqasida nazira an'analari. – Toshkent : Musiqa, 2022.
5. G'ofurbekov.T. Bastakorlik ijodiyoti tarixi, tahlili, taqdiri. - Toshkent : Muharrir, 2019.
6. Rajabiy.Yu. Muzika merosimizga bir nazar. - Toshkent: G.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.
7. Rajabov I. Maqomlar. - Toshkent : San'at, 2006.
8. Бердыханова Ш.Н. Традиция дастанного исполнительства в Каракалпакистане // Oriental Art and Culture. 2022. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/traditsiya-dastannogo-ispolnitelstva-v-karakalpakstane>

<sup>14</sup> Begmatov S. Bastakorlar ijodiyoti notalar to'plami (Xrestomatiya). - Toshkent; Nur-star shines, 2022-7b